



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 6 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU“Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU“Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU“Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI

Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrasida katta o'qituvchisi
shohzoduralov25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolaning maqsadi mamlakatimizda banksug'urtasi soxasini rivojlantirish hamda ushbu soxa rivojlangan mamlakatlarning o'tgan yo'lini o'rganish va ularni joriy qilish ko'zda tutilgan. Rossiya federatsiyasi banksug'urtasining joriy xolati hamda kamchiliklari taxlil qilingan hamda kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Bankinsurans, tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi, kredit mahsulotlari, konsolidatsiya bozori, anderaiter, sug'urta brokleri, bozorning rentabelligi.

Abstract: The purpose of this article is to develop the bancassurance sector in our country and to study the past path of countries that have developed this sector and to introduce them. The current state and shortcomings of bancassurance in the Russian Federation are analyzed and ways to eliminate the shortcomings are indicated.

Keywords: Bancassurance, health insurance, life insurance, credit products, consolidation market, underwriter, insurance broker, market profitability.

Абстрактный: Цель данной статьи - развитие сектора банковского страхования в нашей стране, изучение опыта стран, развивших этот сектор, и представление их примеров. Анализируется текущее состояние и недостатки банковского страхования в Российской Федерации, а также указываются пути их устранения.

Ключевые слова: Банковское страхование, медицинское страхование, страхование жизни, кредитные продукты, рынок консолидации, андеррайтер, страховой брокер, рентабельность рынка.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

Kirish (Vvedenie/Introduction).

Olib borilgan ilmiy izlanishlar va mavjud axborotlar tahlili bank tizimining faoliyati o'z tabiatiga ko'ra murakkab va ko'p omilli tavakkalchiliklarga yo'g'rilgan ekanligini ko'rsatdi. Banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi kengaygani sari ular duch kelayotgan risklar shakli ham o'zgarib, yangicha ko'rinishlarda namoyon bo'layotgani kuzatildi. Shu bois, ushbu bobda taklif etilgan risklar klassifikatsiyasi bank faoliyatidagi asosiy xavf guruhlarini birlashtiruvchi, ularning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi kompleks model sifatida baholanishi mumkin.

Risklarning o'zaro bog'liqligi shuni ko'rsatadiki, kompaniyalarning biridagi o'zgarish boshqasining faollashuviga sabab bo'ladi va natijada bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladi. Bunday holatda risklarni sug'urta mexanizmlari orqali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning eng ishonchli vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bancassurance-banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasida mahsulotlar, mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish kanallarining integratsiyalashuvi-bank risklarini kamaytirishning zamonaviy amaliy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu model 2025-yil holatiga ko'ra dunyoning ko'plab mamlakatlarida bank xizmatlari foydalanuvchilari soni oshayotgan sharoitda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Rossiya bank sug'urtasi o'sib borayotgan sug'urta bozorida mavjud rivojlangan sug'urta kompaniyalarining mavjudligi bilan alohida o'rinda turadi. Ushbu mamlakat bozorini o'rganish hamda sug'urta bozori hamda bank sug'urtasini rivojlantirish uchun ushbu bozorni keng o'rganishni taqazo etadi. Shu bois ko'pgina olimlar Rossiya federatsiyasi bozorini o'rgangan. Maxalliy olimlardan Силакова Л. В., Григорьев Е. А. o'zlarining "Анализ инновационного развития России состояние, проблемы, перспективы" deb nomlangan maqolalarida Rossiya federatsiyasining sug'urta bozorida bugungi kunda eng rivojlangan yo'nalishlardan birini bank sug'urtasi deb ko'rsatishgan. [1]

Bundan tashqari yana bir maxalliy olimlardan Габитова Зульфия Разилевна, Нигматуллина Резида Амировна, Байбурун Радмир Разитович o'zlarining "Инновационная среда России на современном этапе развития экономики" deb nomlangan maqollarida, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida innovatsion faoliyat darajasini oshirish,

tadqiqotlar va ishlanmalar uchun mablag'larni ko'paytirish va Rossiya Federatsiyasining innovatsion rivojlanishini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deyishgan. [2]

Yana bir Rus olimlaridan С.Л. Иванов o'zining "Анализ сущности и состояния инновационного предпринимательства в условиях современной российской экономики" deb nomlangan maqolasida Rossiya Federatsiyasi kabi bir qator iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar innovatsion rivojlanish yo'lga o'tayotgan bir paytda, innovatsion tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biridir deydi. [3]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results). Rossiya Federatsiyasi sug'urta bozori O'zbekiston bozoriga ma'lum darajada o'xshash bo'lib, ikki mamlakatdagi bozor tuzilishi va ishtirokchilar faoliyatida umumiy jihatlar ko'p uchraydi. Rossiyada sug'urta sektori ancha rivojlangan bo'lib, so'nggi yillarda bank sug'urtasi yo'nalishi ham barqaror sur'atlar bilan kengayib bormoqda. Ayniqsa, 2020-2025 yillar davomida Rossiya sug'urta bozorida dinamikasi va asosiy ko'rsatkichlarda kuzatilgan o'zgarishlar ushbu jarayonni yaqqol namoyon etadi. Mazkur davrga oid bozor rivojlanish tendensiyalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan bo'lib, ular bank sug'urtasining ahamiyati ortib borayotganini hamda bank-sug'urta integratsiyasining chuqurlashganini ko'rsatadi.

1-jadval.

Rossiya federatsiyasi sug'urta bozori ma'lumotlari [4].

Sug'urta mukofotlari, mlrd. rub	Mukofotlar o'sish tempi, % (YoY)	Sug'urta to'lovi (tovoni) mlrd. rubl	Sug'urta to'lovi o'zgarish tempi %	Sug'urta to'lovi koeffitsiyenti %

2020	1 539.0	(2019→2020) ≈ +3.9%	659.3	+8.1%	42.84%
2021	~1 800.0	+16.96% (2020→2021)	797.0	+20.89%	44.28%
2022	1 827.9	+1.55%	896.5	+12.48%	49.05%
2023	2 285.06	+25.01%	1 038.0	+15.78%	45.43%
2024	3 700.0	+61.92%	1 100.0	+102.31%	56.76%
2025 (1-yari)	1 800.0 (1n25)	+37% (1n24→1n25); CBR	1 200.0 (1n25)	≈+100% (1n24→1n25); CBR	66.67% (1n25)

2020–2025 yillar sug'urta bozori uchun murakkab makroiqtisodiy sharoitlar davri bo'lib, bu yillarda sektor quyidagi jarayonlarni boshdan kechirdi: Pandemiya shokidan so'ng tiklanish, inflyatsion bosimning kuchayishi, tibbiy va hayot sug'urtasiga ehtiyojning ortishi, regulyator siyosatining keskin o'zgarishi, bozor risklarining sezilarli oshishi shu omillar 2020–2025 yillar davomida sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasi tubdan o'zgarishiga sabab bo'ldi.

2020-yilda pandemiya sharoitida sug'urta bozori qisqa muddatli pasayish xavfi ostida bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab 16,9% o'sish kuzatildi. Bu tiklanish, asosan: tibbiy va hayot sug'urtasiga talabning kuchayishi, korporativ mijozlar segmentining tiklanishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi dasturlar bilan izohlanadi. 2022-yilda mukofotlar atigi 1,55% ga o'sdi, bu davr texnologik va iqtisodiy transformatsiya tufayli "inertsion o'sish" deb baholanadi. Bu davrda sug'urta talabining elastikligi pasaygan, bozor ehtiyotkorlik holatini tanlagan. 2023-yilda 25%, 2024-yilda esa 61,9% o'sish qayd etildi. Bu 2020–2025 davrning eng keskin o'sish bosqichidir. Bu davrda inflyatsiya (preimiyalar nominal hajmini oshirgan), texnologik va raqamli sug'urtaning kengayishi, bank-sug'urta (bancassurance) kanalining o'sishi, korporativ sektorning riskga nisbatan ehtiyotkorligi, hayot sug'urtasi bozorida investitsion polislar hajmining ko'payishi holatlari kuzatildi. Bu bosqich - **intensiv o'sish modeliga** misol bo'la oladi. 2025-yil yuqori sur'atli davomiy o'sish davri deb hisoblanaydi. 2025-yilning 1-yarim yilligida mukofotlar yana 37% ga ko'tarildi. Sug'urta bozori hozir ham "ekspansiv faza"da.

2020–2022 yilda sug'urta to'lovlarning barqaror o'sish davri hisoblanadi. To'lovlar yillik 12–20% diapazonda o'sdi.

Bu sug'urta kompensatsiya mexanizmlarining pandemiya va sog'liq risklariga nisbatan moslashganini ko'rsatadi. 2023–2024 yillar keskin oshish davri bo'ldi. 2024-yilda to'lovlar bir yil ichida ikki baravar bo'lgan - bu juda yuqori ko'rsatkich. Aynan ushbu yilda tibbiy xizmat xarajatlarining keskin oshishi, majburiy sug'urtalardagi tariflarining qat'iyligi natijasida zararlarining ko'payishi, transport va ishlab chiqarishdagi katta yo'qotishlar chastotasi kuzatildi. 2025-yil 1-choragida davomiy yuqori risklar yili bo'ldi. To'lovlar bir yarim yilda 100% oshgan - bu bozorning hali ham yuqori zararlar bosimi ostida ekanidan dalolat beradi.

2-jadval
2020-2025 yillarda sug'urta vositachilari tomonidan sug'urta shartnomalarini sotish ko'rsatkichlari %.[5]


Yil	Banklar orqali (%)	Agentlar orqali (%)	Brokerlar orqali (%)	Internet / elektron (%)	Boshqa vositachilar (%)	Izoh
2020	28	27	3	2	5	Pandemiya davri, bancassurance bosh kanaldir.
2022	32	26	4	4	5	Bozor tiklanishi, bank kanali ulushi oshgan.
2023	31	28	4	5	5	Post-pandemiya bosqichi, elektron savdo rivojlanmoqda.
2024	33	29	4	6	5	Agentlar kanali kuchaygan, bank kanali barqaror.
2025	34	28	5	7	5	Intermediarlar umumiy ulushi 81,7% (bank + agent + broker).
						Raqamli savdo kanali tez rivojlanmoqda, internet ulushi oshgan.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligining eng muhim indikatorlaridan biri Zararlar koeffitsienti ham ushbu yillarda usganini

ko'rishimiz mumkin. 2020–2022: Normativ diapazon kuzatilgan. Bu yillarda koeffitsient sog'lom diapazonda bo'lgan, bu bozorning rentabelligi yuqori bo'lganini anglatadi. 2023–2024 esa Rentabellikning keskin pasayishi kuzatildi. 2024-yilda ko'rsatkich 56,7% ga ko'tarildi. Sug'urta bozorida risk intensivligi yuqori bo'lgan, tariflar riskga mos kelmay qolgan, shu sababli zararlar bosimi oshgan. 2025 yil 1-choragi: Moliyaviy stress davri hisoblanmoqda Bu daraja sug'urta kompaniyalari uchun kritik hisoblanadi. Bunga asosiy sabab qilib esa tibbiy xizmatlar narxining oshishi, yo'qotishlar chastotasining ko'payishi, tarif siyosatining sekin moslanishi, regulyator cheklavlari ko'rsatilmoqda.

Sug'urtaning professional ishtirokchilari tizimining umumiy markazlashuvi banklar, agentlar va brokerlar tarkibidagi konsolidatsiya bozorni markazlashtirdi; buning oqibatida banklarga bog'liq kompaniyalar (bank-gruhalarning sug'urta bo'limlari) bozor bo'yicha yetakchi pozitsiyaga ega bo'ldi. CBR 1p25 bo'yicha banklar posredniklar tarkibida 51% ni egalladi.

Banklar orqali sotuvlar o'sishi bu ham mikro- (mahsulot paketlash, kreditga bog'liqlik, kanallar samaradorligi) va makro-omillar (inflyatsiya, tibbiy-hayot risklarining oshishi, regulyator o'zgarishlari) natijasidir. Bu trend sug'urta bozorining "institutsonallashuvi" va segmentlashuvi tarafdin harakatlanayotganini ko'rsatadi.



2-rasm

2024-yil uchun "Bank sug'urtasining yetakchilari" amaldagi reyting va talqin dinamikasi.[6]

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 2024-yilda Sberbank Strakhovanie Zhizni ~28,49% foiz bilan eng yuqori natijani egallagan. Bu kompaniya bozorning deyarli uchdan birini egallab, hayot sug'urtasi segmentida absolyut yetakchi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichga erishish uchun kompaniya nimalar qildi. Birinchidan Sberbankning mamlakat bo'ylab keng filial tarmog'i mavjud, ikkinchidan Mijoz bazasining yirikligi Rossiya federatsiyasida yashayotgan fuqorolarning juda katta qismi Sberbank juda ishonchli deb hisoblaydi, Uchinchidan Kredit mahsulotlari bilan bog'langan qo'shimcha sug'urta paketlari hamda Kuchli cross-selling yani kreditni olish sug'urta majburiy taklifi mukammal darajada yo'lga qo'yilganligi deb ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari yana bir yirik kompaniyalardan biri bo'lgan AlfaStrakhovanie Zhizni - 7,57%. Ushbu kompaniya Alfa-bank guruhi bilan bog'liqligi kompaniyaga Rossiya bozorida mustahkam pozitsiya taqdim etgan. [7] Uning bozordagi asosiy xususiyatlari jimalardan iborat edi. Eng avvalo Bank tarmog'i orqali sotuvlar juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi, Maxsulotlar to'liq raqamlashtirilgani hamda Yoshlarga mo'ljallangan investitsion hayot sug'urtasi borligi bu esa raqamlashgan davrda yashayotgan yoshlar uchun juda keng imkoniyatlarni yaratib beradi shu bois ham ushbu kompaniya Rossiya bozorida juda katta ulushdor bo'lib qolmoqda. [8]

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).

Xulosa qilib aytganda 2025-yilga kelib Rossiya federatsiyasi Bankinsurans soxasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. ayniqsa pandemiya jarayonida bu juda ham yuqori ko'rsatkichga kelib qolgan. Bunga asosiy sabab esa insonlar uydin chiqmasdan o'zlarini osongina sug'urta qilayotganini ko'rsatsak yana bir sabablardan biri bu yosh texnologiya davrida yoshlar uchun juda ham qulay ekanligidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilish mumkin.

1. Rossiya federatsiyasi barcha sug'urta kompaniyalarida sug'urta maxsulotlarini sotishni takomillashtirish
2. Banklarda sug'urta kompaniyalarining oynalarini joriy qilish
3. Xukumat tomonidan banklar bilan birga ishlagan sug'urta kompaniyalariga qo'shimcha rag'batlantirishlar joriy qilish.
4. Oqsoqlanayotgan sug'urta kompaniyalariga malakali kadrlarni jalb qilishni yo'lga qo'yish.

Ushbu joralarni yo'lga qo'yish orqali Rossiya Federatsiyasida bankinsuranse jarayonini yanada ravnaq toptirish hamda dunyoda Bankinsuranse eng rivojlangan mamlakatlar qatorida birinchi bo'lishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Силакова, Л. В., and Е. А. Григорьев. "Анализ инновационного развития России: состояние, проблемы, перспективы." *Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент»* 2 (2021): 86-96.
2. Габитова, Зульфия Разилевна, Резида Амировна Нигматуллина, and Радмир Разитович Байбурин. "Инновационная среда России на современном этапе развития экономики." *Экономика. Право. Инновации* 1 (2024): 17-23.
3. Ivanov, S.L. "Анализ сущности и состояния инновационного предпринимательства в условиях современной российской экономики." *актуальные проблемы* (2021): 77..
4. http://www.ranational.ru/sites/default/files/analytic_article/insurance%20market%20of%20russia%202017.pdf
5. Muallif tomonidan RAEX (Ekspert RA) sug'urta portali ma'lumotlaridan foydalanib tuzildi.
6. RAEX (Ekspert RA) sug'urta portali ma'lumotlari (<https://insur-portal.ru/banks/tendencii-rynka-bankostrahovaniya>) ma'lumotlaridan foydalanildi..
7. Баратова Динора Алишеровна. (2025). Применение МСФО 17 в страховой системе узбекистана: перспективы внедрения и потенциальные проблемы. Анализ резервов и законодательных барьеров. *Insurance Market of Uzbekistan*, 2(3), 6–9. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/288
8. Dildora Bohodirovna Abdusattarova. (2025). Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash: homiylik mablag'lag'laridan foydalanish. *Insurance Market of Uzbekistan*, 2(3), 42–44. https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/299